



LOYIHALARDA RISK XAVFINI ANIQLASH VA BOSHQARISH

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrası mudiri

Habibullayeva Shahrizoda O'ktam qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Maktabcha ta'lim yo'nalishidan 1-bosqich magistranti

E-mail : xabibullayevashaxrizoda5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15393061>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- May 2025 yil

Ma'qullandi: 10- May 2025 yil

Nashr qilindi: 13- May 2025 yil

KEY WORDS

loyiha boshqaruvi, risk tahlili, xavfni baholash, risk menejmenti, xavflarni boshqarish strategiyalari, noaniqlik, qaror qabul qilish, xavfni kamaytirish, xavfni oldini olish, risk monitoringi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada loyihalarda risk xavfni aniqlash va boshqarishi har tomonlama tahlil qilinadi. Xavf tushunchasi, uning turlari, aniqlash usullari va boshqarish strategiyalari batafsil ko'rib chiqiladi. Xavfni samarali boshqarish metodlari va zamonaviy yondashuvlar muhokama qilinadi. Zamonaviy boshqaruv tizimlarida risklarni boshqarish metodologiyalari, tahlil usullari va qaror qabul qilish jarayonlari yoritilib, real misollar orqali samarali yondashuvlar ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va ulardagi noaniqliklarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Maqola ilmiy tadqiqotlar va real loyihalardagi tajribalar asosida yozilgan bo'lib, loyiha menejerlari va tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Loyihalarni boshqarish bugungi kunda korxonalar va tashkilotlar muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Har qanday loyiha ma'lum darajada noaniqlik va xavf bilan bog'liq bo'lib, bu omillar uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, loyihalarda xavfni aniqlash va boshqarish tizimi samarali faoliyat yuritishi uchun muhim hisoblanadi. Xavf omillarini oldindan aniqlash va ularni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish loyihalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi. Ushbu maqolada loyihaviy xavflarni baholash, ularni minimallashtirish va boshqarish usullari o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi va innovatsion loyihalarning keng joriy etilishi loyihalarni samarali boshqarish zaruratini oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, risklarni aniqlash va boshqarish jarayonlari muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va farmonlar loyihalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda xavflarni minimallashtirishga qaratilgan. Jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qabul qilingan qarorlar, "Davlat dasturlarini amalga oshirish monitoringini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmonlari, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga oid qarorlar risklarni aniqlash va boshqarish tizimining huquqiy asosini mustahkamlaydi.[1]

Shuningdek, 2022-yil 8-apreldagi "Investitsiya loyihalarini rejalashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-202-sonli qaror.[2] 2023-yil 12-iyundagi "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va ochiqlikni oshirish to'g'risida"gi PQ-191-sonli qaror loyihalarni amalga oshirish jarayonida moliyaviy va strategik xavflarni oldindan aniqlash va ularni samarali boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.[3]

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ushbu tashabbuslar loyihalardagi xavflarni minimallashtirish, ularning barqarorligini ta'minlash va innovatsion yondashuvlar orqali samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Shu sababli, risklarni boshqarish bugungi kunda faqat moliyaviy yoki texnik muammo sifatida emas, balki umumiy strategik muhim jarayon sifatida ko'rilishi lozim. Ushbu tadqiqotda risklarni aniqlash va boshqarishning zamonaviy usullari, O'zbekistonda joriy etilayotgan huquqiy va iqtisodiy islohotlar doirasida ularning ahamiyati va samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy sharoitlarida sanoat korxonalari uchun innovatsiyaviy va texnologik taraqqiyotga erishish o'ta muhimdir, chunki faqat shu yo'l orqali sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish, zamonaviy texnologik bazani yaratish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, samaradorlik va mehnat unumdorligini oshirish, shuningdek, ularning xalqaro hamda mahalliy raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

1. Risk - bu potentsial, son bilan o'lchanadigan yo'qotish ehtimoli. Risk tushunchasi loyihani amalga oshirish paytida noqulay vaziyatlar va oqibatlar ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan noaniqlik bilan tavsiflanadi.

2. Risk - yo'qotishlar, rejalashtirilgan daromadlarning yo'qolishi, foydaning etishmasligi ehtimoli.

3. Risk - bu kelajakdagi moliyaviy natijalarimizning noaniqligi.

4. J.P.Morgan riskni kelajakdagi sof daromadga nisbatan noaniqlik darajasi sifatida belgilaydi.

5. Risk - yo'qotishlarga olib keladigan ehtimoliy hodisaning qiymat ifodasi.

6. Risk - salbiy oqibatlar, xavf, yo'qotish va shikastlanish xavfi.

7. Risk - agar faoliyatning holati va shartlari rejalar va hisob-kitoblarda nazarda tutilganidan farq qiladigan yo'nalishda o'zgarsa, faoliyat natijasida qiymatlarni (moliyaviy, moddiy tovar resurslarini) yo'qotish ehtimoli.

Shunday qilib, risk ehtimollik va noaniqlik o'rtasidagi yaqin munosabatlar aniq ko'rinadi. Risk toifasini aniqroq ochib berish uchun "ehtimollik" va "noaniqlik" kabi tushunchalarni aniqlash kerak, chunki bu ikki omil xavflarning asosi hisoblanadi. Ehtimollik atamasi ehtimollik nazariyasi uchun asos bo'lib, voqealarni ularning darajasiga qarab miqdoriy ravishda taqqoslashga imkon beradi. Hodisaning ehtimoli - bu ma'lum miqdordir, bu kattaroq bo'lsa, voqea shunchalik mumkin. Ehtimollik - bu ma'lum bir natijaga erishish qobiliyati. Shubhasiz, tez-tez sodir bo'lgan voqea ko'proq ehtimol deb hisoblanadi. Ishonchli voqea ehtimoli, ya'ni, har qanday tajriba, faoliyat jarayoni natijasida ro'y berishi kerak bo'lgan bunday voqea. Bunday hodisaning misoli mahsulotni sotishda daromad olish faktidir, chunki kompaniyaning mahsulotni narxsiz sotishi mumkin emas (oxirida narx nolga teng bo'lishi mumkin, bu holda daromad nolga teng bo'ladi).

Loyihani amalga oshirish jarayonida ma'lum darajadagi yo'qotishlarning paydo bo'lish chastotasini formula bo'yicha hisoblash mumkin.

$$f(A)=n(A)/n,$$

Bu erda

f - ma'lum bir yo'qotish darajasining yuzaga kelish chastotasi;

n (A) - ushbu darajadagi yo'qotishlar yuz bergan holatlar soni;

n - statistik namunadagi ishlarning, shu jumladan muvaffaqiyatli yakunlangan va bajarilmagan investitsiya loyihalarining umumiy soni.[4]

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlar:

Bank tizimida risklarni boshqarishning xalqaro tajribasi: Narmuradov Farrux Ziyadullayevich tomonidan yozilgan ushbu maqolada bank tizimidagi risklarni boshqarish bo'yicha xalqaro amaliyot tajribasi muhokama qilinadi. Xatarlarni aniqlash, baholash va nazorat qilishda jahonning yetakchi banklari tomonidan qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar tahlil qilingan. Kapitalni tartibga solish, stress-testlar, keng qamrovli ichki nazorat tizimi kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Har xil turdagi risklarni samarali boshqarish uchun amaliyot va vositalar o'rganilgan va xalqaro tajribani moslashtirish imkoniyatlari haqida xulosalar chiqarilgan.

Kreditlashda risklarni boshqarish usullaridan foydalanish: Sharbat Abdullayeva va Nozima Abdullayeva tomonidan yozilgan ushbu maqolada xorijiy banklar amaliyotida risklarni baholash va boshqarishda keng qo'llaniladigan VaR (Value at Risk) – risk ostidagi qiymat usulining mohiyati, ahamiyati va mamlakatimiz banklari faoliyatida uni qo'llash imkoniyati haqida fikr yuritilgan.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari: Sanjar Madiyarov tomonidan yozilgan ushbu maqolada investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari yoritilgan. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy risklarni boshqarishning aniq tamoyillari va investitsion kredit oluvchilarning to'lovga qobilligini moliyaviy koeffitsiyentlar asosida baholash tizimi tahlil qilingan hamda moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalarini mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Korxonalar moliyaviy faoliyatidagi risklarni boshqarishni takomillashtirish: Berdiqobilov Nodirbek Xurshid o'g'li va Xasanov Rashid Radjaboyevich tomonidan yozilgan ushbu maqolada korxonalar moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan risklarni samarali boshqarish uchun moliyaviy xavflarni aniqlash, baholash va minimallashtirish usullari ko'rib chiqilgan. Risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.


Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlar:

ISO 31000:2009

FRM "Financial Risk Management"

FERMA (Federation of European Risk Management)

COSO (Committee of Sponsoring Organizations) [5]



Tahlil va natijalar

Risklarni boshqarish" tushunchasining ma'nosini to'liq ochib berish uchun birinchi navbatda "menejment" atamasining mazmunini umumiy ma'noda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. "Menejment" tushunchasi XVIII-XIX asrlarda Angliyada sanoat inqilobi boshlanishi bilan paydo bo'ldi va keyinchalik butun dunyoga tarqaldi. Yuzlab va minglab ishchilarga ega bo'lgan yirik korxonalar sonining o'sishi ular egalari tomonidan bir o'zi ko'p sonli bo'ysinuvchilarni malakali tarzda boshqara olmasliklari va maxsus xodimlarni – malakali boshqaruvchi (menejer)larni yollashga majbur etdi. "Menejment" tushunchasi, shuningdek, korxonaning xo'jalik maqsadlariga erishishda barcha xodimlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish vazifasi hisoblangan boshqaruvchilar faoliyatiga nisbatan ham qo'llanildi. Bundan tashqari, "menejment" tushunchasi mulkchilik shakli va faoliyat maqsadlaridan qat'i nazar, zamonaviy korxonalarning boshqaruv apparatini ifoda etdi.

Bugungi kunga kelib, boshqaruvga oid adabiyotlarda "menejment" tushunchasining turli xil talqinlarini topish mumkin. Boshqaruv sohasidagi yetakchi nazariyotchilaridan biri P.Druker menejmentni "uyushmagan olomonni samarali, maqsadli va unumli guruhga aylantiradigan maxsus faoliyat turi" deb ta'riflaydi.[6]

Risklarni boshqarish – bu bosh maqsad emas, balki korxonaning asosiy faoliyatiga nisbatan yordamchi xususiyatga ega bo'lgan tizim bo'lib, u korxonaga qo'yilgan maqsadlarga erishishga yordam beradigan boshqaruv vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu ta'rifda ifodalangan yana bir muhim jihat – bu risklarni boshqarish oqibatlarining o'zini emas, balki oqibatlarining ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Shak-shubhasiz, bunday minimallashtirishning eng yaxshi usuli – bu risk ehtimoli yoki oqibatlarini chegaralash yoki minimallashtirishdir (oqibatlar qanchalik kichik bo'lsa, ta'sir ham shunchalik kam bo'ladi). Agar risklar qilingan hisob-kitoblarga ko'ra, korxona faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir etmasa, u holda ularning yuzaga kelishiga yo'l qo'yiladi. Asosiysi, bu qaror korxona rahbariyati tomonidan asosli va ongli ravishda qabul qilinishi kerak.

Risklarni boshqarish - bu mustaqil fan sifatida korxona xo'jalik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni boshqarish muammolarini o'rganuvchi zamonaviy menejmentning alohida yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Risklarni boshqarish, keng ma'noda, risklarni aniqlash va baholash, shuningdek, ularni minimallashtirish bo'yicha boshqaruv usullari va vositalarini tanlash jarayonidir. Risklarni boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi: risklarni aniqlash, tahlil qilish va baholash; inqirozli vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish; omon qolish mexanizmlarini ishlab chiqish; sug'urta tizimini yaratish; bozor kon'yunkturaning o'zgarishini hisobga olgan holda korxonaning rivojlanishini prognozlash va boshqa chora-tadbirlar. Risklarni boshqarish, tor ma'noda, brokerlik firmalari, sug'urtalash va qayta sug'urtalash kompaniyalari tomonidan o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar turidir.

Risklarni boshqarishning tarkibiy elementlari bo'lib, risklarni aniqlash; risklarni baholash; risklarni boshqarish; risklarni moliyalashtirish (risklarni boshqarish xarajatlari) tashkil etadi.

Risklarni boshqarish nazariyasi va amaliyotining uch asosiy yo'nalishlari mavjud. Birinchi yo'nalish risklar haqida ogohlantirish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi yo'nalish risklarning korxonaga olib kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni minimallashtirish masalalariga tegishlidir. Uchinchi yo'nalish, riskli vaziyatlarda qo'shimcha daromad olish yoki boshqa tijorat afzalliklarini qo'lga kiritish imkoniyati bilan bog'liq. Yuqorida aytib o'tilgan uch yo'nalishlarni birgalikda tartibga solish orqali korxona rahbari risklarni boshqarishning chinakam samarali tizimini yaratishga erishadi. Dastlab faqat tadbirkorlik faoliyati sohasida foydalanilgan "risklarni boshqarish" atamasi va uning asosidagi boshqaruv tamoyillari hozirda ijtimoiy sohada, texnologiya va moliya bozorining amal qilishida keng qo'llanilmoqda, biroq risk menejmentini ilmiy menejmentning to'liq shakllangan bo'limi sifatida aytish bir muncha erta hisoblanadi.[7]

Xulosa va takliflar

Loyihalarda risk xavfini aniqlash va boshqarish jarayoni loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Risklarni oldindan aniqlash, ularni baholash va samarali boshqarish loyihaning muddatida va belgilangan byudjet doirasida

bajarilishiga yordam beradi. Risklarni boshqarishning asosiy bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Risklarni aniqlash – loyiha doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni aniqlash va hujjatlashtirish.

Risklarni baholash – aniqlangan risklarning ehtimolligi va ta'sir darajasini tahlil qilish.

Risklarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish – risklarni kamaytirish, oldini olish yoki ta'sirini minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish.

Monitoring va nazorat – loyihaning butun davomida risklarning dinamikasini kuzatib borish va kerak bo'lsa, ularni qayta baholash.

Risklarni boshqarishda zamonaviy usullar va texnologiyalardan foydalanish loyihaning barqarorligini oshiradi va kutilmagan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.

Risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish – har bir loyiha doirasida risklarni aniqlash va baholash bo'yicha yagona tizim joriy etilishi kerak.

Tahlil va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish – maxsus dasturiy ta'minotlar yordamida risklarni tezkor aniqlash va boshqarish tizimini takomillashtirish.

Risklarni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish – potensial tahdidlarni minimallashtirish uchun muqobil yechimlarni oldindan tayyorlash.

Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish – loyiha ishtirokchilarini risklarni boshqarish tamoyillari bo'yicha o'qitish va ularni bu borada yetarli bilim bilan ta'minlash.

Sug'urta mexanizmlaridan foydalanish – loyiha muvaffaqiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan risklarni sug'urtalash orqali moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash.

Doimiy monitoring va tahlil qilish – loyiha jarayonida risklarni muntazam baholash va ularga mos ravishda yangilangan strategiyalarni ishlab chiqish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish natijasida loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, kutilmagan xavflar minimallashtirilishi va loyihaning umumiy samaradorligi oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) VA BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI**, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/16, 33-37.
2. G Shamsiddinov, „iyosjon, Jasmina Murodulloyeva, and Durdona Turayeva." **GLOBAL IQLIM O „ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHNING ZAMONAVIY, INNOVATSION USULLARI**." Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024, 103-106.
3. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, **KLIENT-SERVER ARXITEKTURALARI**, Наука и инновация, 2025/3/25, 113-119.
4. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, **VIRTUAL BORLIQ VA UNING ASOSIY TUSHINCHALARI**, Наука и инновация, 2025/3/24, 52-58.
5. G'iyosjon Shamsiddinov, Barchin Ro'ziqulova, Laziza Inatillayeva, **BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI**, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/10/21, 39-41.

6. Л Турсунова, С Жураев, ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024, 35-37.
7. DO Israilovich, TL Komilovna, Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering, European journal of innovation in nonformal education, 2022, 369-373.
8. Ro'Ziqulova Marjona Jonuzoq Qizi, Tursunova Luiza Komilovna, INFORMATIKA FANINI O 'QITISHDA SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR, Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2025, 63-66.
9. Луиза Комиловна Турсунова, Гиесжон Шамсиддинов, Образ педагога в информационном мире, "Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi" mavzusidagi xalqaro ilmiy Anjuman, 2024/2/23, 421-426.
10. Зебинисо Абдулхакимовна Абдувалиева, Турсунова Луиза Комиловна, Математический аппарат методов принятия решения документооборота в ВУЗах, 2022, 286-289.
11. Alijon Muhammadiyev, Shukurullo Aliqulov, PROSPECTS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION, Наука и технология в современном мире, 2024, 90-92.
12. Sh Aliqulov, M. Yaxiyaxonova. Ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani Qo'llashning ta'lim ..., 2024.
13. ALIQULOV SHUKURULLO FAYZULLO, TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO'LLASH, JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 45 | ISSUE – 2 January – 2024, 2024/1/2, 61-65.
14. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Iqtidorli talabalarni fan, ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiya qilishning zamonaviy usullari, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 54-57.
15. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Hozirgi globalashuv jarayonida intellektual yoshlarning ijtimoiy rivojlanish davridagi roli, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 40-43.
16. Mavlonov Sh Sh, FB Jurayeva, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MINTAQALAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, Экономика и социум, 2024, 234-238.
17. Feruza Jo'rayeva, Sarvinov Xurramova, MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARI TAHLILI, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/9, 8-12.
18. Feruza Jo'rayeva, TA'LIM JARAYONIDA AQL XARITALARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING AHAMIYATI, Молодые ученые, 2024/4/8, 159-166.
19. Feruza Jo'rayeva, Gulhayo Hamdamova, MEDIA SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATIMIZ HAYOTIDAGI AHAMIYATI, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/3/31, 31-35.
20. Tuxtanazarova N. A Davletov A. J. , Mavlanberdiyev S. F., Norqulova Z. N., Jurayeva F. B., Jurayeva D. Sh, STUDY RATIO OF MOISTURE AND BIOME FOR EXTREME SITUATION, ВЫСШАЯ ШКОЛА• №23 / 2021, 2021/12/23, 34-36.

21. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "CHET ELDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING INKLYUZIV TA'LIMI." Молодые ученые 3.8 (2025): 160-165.
22. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY BAZASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI." Наука и инновация 3.8 (2025): 146-151.
23. Salimova, Marjona, and Nozima Nuriddinova. "AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY ILMIY FANLARNI O'QITISHDA DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISHNING INNOVATSION USULLARI." Наука и инновация 2.38 (2024): 161-164.
24. Nuriddinova, Sevinch, and Nozima Nuriddinova. "Increasing the effectiveness of learning biology lessons by means of interactive games and interactive methods." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.7 (2024): 288-290.

